

**XII. O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI**

**Samarqand viloyati bo‘yicha  
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi  
(2023-yilning yanvar-iyun oylari holatiga)**

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.** 2023-yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 227,5 ming so‘mni tashkil etdi.


Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Samarqand shahrida 4 214,7 ming so‘m (viloyatidagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 130,0 foiz) ni tashkil etgan.

**Yuridik shaxslarda xodimlar mehnatga haq to‘lash tarzida  
hisoblangan daromad**  
(2023-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda  
kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m	Aprel	May	Iyun
<b>Viloyat bo‘yicha jami</b>	<b>3 187,0</b>	<b>3 325,1</b>	<b>3 566,7</b>
shu jumladan:			
Sanoat	3 713,8	3 605,8	3 873,1
Qurilish	3 551,9	3 694,2	3 768,4
Savdo	2 626,5	2 501,9	2 651,2
Tashish va saqlash	4 881,9	4 366,5	4 915,7
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	4 536,8	4 666,2	4 639,5
Axborot va aloqa	7 155,1	7 874,3	8 064,6
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	9 083,4	8 555,5	12 474,0
Ta’lim	2 719,2	2 967,1	3 132,7
Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	2 840,2	2 973,2	3 027,6
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 705,2	2 981,8	3 022,4
Boshqa faoliyat turlari	3 802,1	3 823,8	4 192,2


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o‘rtacha oylik ish haqi, *ming so‘m*




2023-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng baland ko‘rsatkichi-bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasiga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish darajasi **150,0%** ni tashkil etdi.

Shuningdek, axborot va aloqa sohasiga **155,9%**, savdo sohasi **142,0%**, tashish va saqlash sohasi **141,5%**, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasi **124,5%**, qurilish sohasi **122,7%**, sanoat sohasi **122,6%**, hamda ta’lim sohasida **116,7%** ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin.

### **SANOAT SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI**



## Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Tog'-kon sanoati va  
ochiq konlarni ishslash

Ishlab chiqarish sanoati

Suv bilan ta'minlash,  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va  
utilizatsiya qilish


Elektr, gaz, bug'  
bilan ta'minlash va havoni  
konditsiyalash

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (**5 594,0 ming so'm**), ishlab chiqarish sanoati (**3 306,3 ming so'm**), tog'-kon sanoati va o'chiq konlarni ishslash (**2 924,6 ming so'm**) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (**2 675,5 ming so'm**) kuzatildi.

### Hududlar kesimida

Hudud	o'sish sur'ati (%)	ming so'm
Payariq t.	3,2 m.	5383,3
Jomboy t.	183,4%	5067,3
Samarqand sh.	122,1%	4181,0
Nurobod t.	135,9%	4603,4
Oqdaryo t.	2,1 m.	4384,8
Samarqand t.	122,5%	3275,7
Pastdarg'om t.	166,9%	2301,5
Paxtachi t.	87,2%	2555,7
Kattaqo'rg'on t.	123,6%	2362,6
Ishtixon t.	121,0%	2334,3
Narpay t.	81,5%	2041,2
Urgut t.	102,6%	1984,5
Kattaqo'rg'on sh.	97,4%	1938,5
Toyloq t.	105,9%	1602,8


### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Sanoat iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Payariq tumani (**5 383,3 ming so'm**), Jomboy tumani (**5 067,3 ming so'm**) Samarqand shahri (**4 181,0 ming so'm**), Nurobod tumani (**3 821,4 ming so'm**) hamda Oqdaryo tumani (**3 642,3 ming so'm**) kuzatildi.

### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

## QURILISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




### Hududlar kesimida




ming so'm  
o'sish sur'ati

Qurilish faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Pastdarg'om tumani (4 944,1 ming so'm), Toyloq tumani (4 542,6 ming so'm), hamda Kattaqo'rg'on shahrida (3 000,7 ming so'm) qayd etildi.

### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



ming so'mda  
o'sish sur'ati




### **Savdo sohasining oylar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m**



Savdo faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Pastdarg‘om tumani (**3 725,9 ming so‘m**), Toyloq tumani (**3 619,6 ming so‘m**), Jomboy tumani (**2 656,9 ming so‘m**), Samarqand shahrida (**2 322,8 ming so‘m**) kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘sish sur’ati Urgut tumanida (**2,1 m.**) Oqdaryo tumanida (**192,9%**) hamda Kattaqo‘rg‘on tumanida (**192,5%**) qayd etildi.

## Hududlar kesimida



Tuzlamalar


*O‘rtacha oylik ish haqining  
yillar kesimidagi  
dinamikasi, ming so‘m*



Savdo faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining nisbatan pastroq ko‘rsatkichi Samarqand tumani (**1 414,4 ming so‘m**), Kattaqo‘rg‘on shahri (**1 590,3 ming so‘m**) hamda Oqdaryo tumanida (**1 916,7 ming so‘m**) ko‘rsatkich kuzatildi.



## TASHISH VA SAOLASH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAOI



### Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi




**4 881,9** ming so'm  
Aprel



**4 366,5** ming so'm  
May




**4 915,7** ming so'm  
Iyun




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Narpay tumanida (**8 116,5 ming so'm**), viloyatga nisbatan (**4453,4 ming so'm**) **190%** kuzatildi.

### Hududlar kesimida




### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Naray tumani (**8 116,5 ming so'm**), Samarqand tumani (**5 247,2 ming so'm**), Samarqand shahri (**3 431,9 ming so'm**), Urgut tumani (**1 019,0 ming so'm**) hamda Pastdarg'om tumani (**979,9 ming so'm**) kuzatildi.

### AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




### Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi

Axborot va aloqa sohasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Samarqand shahri (**7 391,1 ming so'm**)da kuzatilgan bo'lsa, past ko'rsatkich esa Qo'shrabot tumanida (**2 012,2 ming so'm**)da kuzatildi.




**O‘rtacha oylik ish haqining  
yillar kesimidagi dinamikasi,  
ming so‘m**



Axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Samarqand shahri (**7 391,1 ming so‘m**) da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘sish sur’ati Samarqand shahrida (**158,0%**), Narpay tumanida (**151,5%**), Kattaqo‘rg‘on shahrida (**140,8%**) Urgut tumanida (**140,3%**) qayd etildi.

**BANK, SUG‘URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK  
SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI**



**Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatining oylar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi**



**9 083,4** *ming so‘m*  
Aprel




**8 555,5** *ming so‘m*  
May



**12 474,0** *ming so‘m*  
Iyun


Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Kattaqo‘rg‘on shahrida (**9 962,2 ming so‘m**)da past ko‘rsatkichi esa Ishtixon tumanida (**6 036,3 ming so‘m**) kuzatildi.

**Hududlar kesimida**




Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Kattaqo‘rg‘on shahrida (**9 962,2 ming so‘m**), Samarqand shahrida (**9 047,1 ming so‘m**) Bulung‘ur tumanida (**8 663,0 ming so‘m**), Urgut tumani (**8 431,8 ming so‘m**)da hamda Oqdaryo tumanida (**7 770,3 ming so‘m**) kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘sish sur’ati Payariq tumani (**2,2 m.**), Pastdarg‘om tumani (**2,1 m.**), Urgut tumani (**161,9%**) qayd etildi.

## TA'LIM SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



### Taʼlim sohasi boʼyicha oylar kesimida oʼrtacha oylik ish haqi



Taʼlim sohasining asosiy tarmoqlari boʼyicha oʼrtacha oylik ish haqining eng yuqori koʼrsatkichi Samarqand shahri (4 120,7 ming soʻm)da, past koʼrsatkich esa Bulungʼur tumanida (2 316,8 ming soʻm)da kuzatildi.


### Hududlar kesimida

Samarqand sh.	4120,7
Urgut t.	2954,6
Samarqand t.	2872,9
Kattaqo'rg'on sh.	2845,3
Toyloq t.	2760,8
Nurobod t.	2627,5
Qo'shrabot t.	2562,2
Narpar y.	2493,1
Ishtixon t.	2471,5
Jomboy t.	2454,3
Pastdarg'om t.	2453,5
Oqdaryo t.	2446,0
Payariq t.	2408,9
Kattaqo'rg'on t.	2381,4
Paxtachi t.	2336,8
Bulung'ur t.	2316,8

ming so'm


o'sish sur'ati

### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



Ta'limgoh sohasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Samarqand shahri (4 120,7 ming so'm), Urgut tumani (2 954,6 ming so'm), Samarqand tumani (2 872,9 ming so'm), hamda Kattaqo'rg'on shahri (2 845,3 ming so'm)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Qo'shrabot tumanida (122,0%), Samarqand tumanida (121,0%), Paxtachi tumanida (118,9%) Samarqand shahrida (118,8%), Urgut tumanida (118,5%) hamda qayd etildi.

### SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIY XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



### Hududlar kesimida

Nurobod t.	3210,2
Samarqand sh.	3094,7
Payariq t.	3011,0
Qo'shrabot t.	2884,8
Bulung'ur t.	2870,9
Kattaqo'rg'on sh.	2844,4
Narpay t.	2832,4
Kattaqo'rg'on t.	2688,3
Ishtixon t.	2634,6
Paxtachi t.	2634,4
Samarqand t.	2622,7
Jomboy t.	2582,0
Toyloq t.	2579,9
Pastdarg'om t.	2497,4
Oqdaryo t.	2478,5
Urgut t.	2387,7
	116,2

ming so'm

o'sish sur'ati

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining faoliyati turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi), Nurobod tumani (**3 065,5 ming so'm**), Samarqand shahrida (**2 978,0 ming so'm**), Payariq tumanida (**2 858,2 ming so'm**), Narpay tumanı (**2 833,5 ming so'm**) hamda Bulung'ur tumanida (**2 762,4 ming so'm**) kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Qo'shrabot tumani (**145,2%**), Narpay tumanı (**140,7%**) hamda Kattaqo'rg'on shahrida (**140,4%**) qayd etildi.

### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm

